

QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XOM ASHYO BAZASINI RIVOJLANTIRISH LOYIHALARINI QO‘LLAB QUVATLASH

Kuchkarov Rasuljon Validjanovich

Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17424913>

Annotatsiya. Mazkur tezisda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini rivojlanishi, ularni sifatli xom ashyo bilan ta‘minlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali sohaning xom ashyo bazasini kengaytirish yo‘llari tahlil qilinib, tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qurilish materiallari, qurilish texnologiyalari, samaradorlik, qurilish xom ashyosi, qurilish sohasi, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация. В диссертационной работе анализируются развитие промышленности строительных материалов, обеспечение её высококачественным сырьем, пути расширения сырьевой базы отрасли за счёт внедрения инновационных технологий, а также разрабатываются соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: строительные материалы, строительные технологии, эффективность, строительное сырье, строительная индустрия, инновационные технологии.

Abstract. This thesis analyzes the development of the building materials industry, providing it with high-quality raw materials, and ways to expand the raw material base of the industry through the introduction of innovative technologies, and develops relevant recommendations.

Keywords: building materials, construction technologies, efficiency, construction raw materials, construction industry, innovative technologies.

Ma‘lumki keyingi yillarda yurtimizda ulkan bunyodkorlik-qurilish ishlari amalga oshirilmoqda. Qurilish ishlari shaharu qishloqlarda jadal olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda yildan-yilga energiya tejankor, import o‘rnini bosuvchi, innovatsion va yangi turdagi qurilish materiallariga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda. Xususan, qurilish materiallariga bo‘lgan talab nafaqat mahalliy balki jahon bozorlarida ham kun sayin o‘sib bormoqda. Ushbu yuqori ichki talabga mos ravishda yurtimizda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi so‘nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Bundan tashqari qurilish materiallari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, mahsulot turini ko‘paytirish maqsadida, mazkur sohada yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Taxlillarga ko'ra, 2019-2024 yillarda qurilish materiallari sohasiga 9 milliard dollar investitsiya kiritilib, 5 mingga yaqin yangi korxonalar ishga tushdi, 94 mingta doimiy ish o'rni yaratilgan. Qurilish materiallari yillik aylanmasi 100 milliard so'mdan oshgan korxonalar 150 tadan oshdi. So'nggi besh yilda qurilishlar hajmi ham 2 baravar ko'paygan. Shu bilan birga, 650 million dollarlik yangi mahsulotlarni o'zlashtirish hisobiga qurilishdagi import ulushini 31 foizdan 25 foizga tushirishga erishildi. Qurilish materiallari eksport bozori ham 58 taga yetdi, xorijda 20 dan ortiq savdo omborlari, 50 dan ziyod savdo do'konlari ochilgan.¹

Lekin, salohiyati, mahsulotiga bozorda talab yuqori bo'lgan ushbu soha uchun bu ko'rsatkichlar kam ekanligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimiz haligacha lak-bo'yoq, gulqog'oz, PVXdan quvur va fittinglar, pol qoplamasi, pardozbop tosh, vinilxlorid yoki halogenlangan olefinlarning polimerlar, olovga chidamli loy, xrizotil (asbest) kabi tovarlar import qilmoqda.

Bundan tashqari, aksariyat korxonalar hozirda eski uskunalardan foydalanmoqda, ishlab chiqaruvchilarning taxminan 60% zamonaviy avtomatlashtirilgan liniyalarga ega emas. Bu holat ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Energiya iste'moli yuqori bo'lgan qurilish materiallari - sement va beton ishlab chiqarish sohalarida energiya tejaydigan texnologiyalar kam joriy qilinganligi natijasida ta'minot tizimlari modernizatsiya qilinmagan korxonalarda 1 tonna sement ishlab chiqarish uchun o'rtacha 110-120 kVt/soat energiya sarflanmoqda, zamonaviy uskunalarda esa bu ko'rsatkich 80-90 kVt/soatni tashkil qilishi aniqlangan.

Umumiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini xom ashyo bilan ta'minlash yuzasidan muammolar saqlanib qolmoqda. Eksport imkoniyatlari kengaymoqda, lekin, importni kamaytirish uchun ichki xom ashyo bazasini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, respublikamizda mahalliy xom ashyo manbalari ko'pligi, eksport geografiasini va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari kengayishini inobatga, davlat rahbari tomonidan qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchilarni sifatim hom ashyo materiallari bilan ta'minlash dasturi qabul qilindi.

1-jadval

¹ <https://biznesombudsman.uz/uz/news/1617>

**2019-2025 yillarda geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, mahalliy xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash asosida qurilish industriyasining xom ashyo bazasini kengaytirish bo'yicha
PROGNOZ KO'RSATKICHLAR²**

| T/r | Xom ashyo resurslarining nomi | O'lchov birligi | Qazib olish hajmlari | | | | | | | 2025 yilda 2018 yilga nisbatan dinamika (foizda) | |
|-----|---------------------------------|-----------------|----------------------|----------|----------|---------|----------|----------|----------|--|---------|
| | | | 2018 y. (fakt) | prognoz | | | | | | | |
| | | | | 2019 y. | 2020 y. | 2021 y. | 2022 y. | 2023 y. | 2024 y. | | 2025 y. |
| 1. | Ohaktosh | ming tonna | 11 219,7 | 16 268,6 | 19 073,5 | 20 95,5 | 21 317,4 | 21 78,4 | 22 39,4 | 24 12,0 | 216,7 |
| 2. | Tuproqsimon komponentlar | ming tonna | 1 216,7 | 1 581,7 | 1 703,4 | 1 825,1 | 2 007,6 | 2 068,4 | 2 129,2 | 2 202,2 | 181,0 |
| 3. | Kvars qumi | ming tonna | 287,9 | 374,3 | 431,9 | 575,8 | 719,8 | 863,7 | 1 007,7 | 1 262,0 | 438,3 |
| 4. | Qum-shag'al materiallari | ming kub. m | 7 029,2 | 8 083,6 | 9 138,0 | 9 840,9 | 10 543,8 | 11 246,7 | 11 949,6 | 12 652,6 | 180,0 |
| 5. | G'isht xom ashyosi | ming kub. m | 2 092,4 | 2 406,3 | 2 510,9 | 2 615,5 | 2 720,1 | 2 887,5 | 2 992,1 | 3 150,0 | 150,5 |
| 6. | Ko'chgan tog' jinslari (bazalt) | ming tonna | 162,7 | 195,2 | 211,5 | 227,8 | 244,1 | 260,3 | 276,6 | 293,5 | 180,4 |
| 7. | Gips toshi | ming tonna | 1 292,0 | 1 679,6 | 1 938,0 | 2 067,2 | 2 196,4 | 2 454,8 | 2 713,2 | 3 077,0 | 238,2 |

1-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2019-2025 yillarda belgilangan reja ko'rsatkichlarini bajarilishi bilan mamlakatimizda katta ehtiyojga ega bo'lgan qurilish mahsulotlari (oxak, gips, granit, oyna va boshqa) uchun xom ashyo bazasi tashkil etilib, ushbu mahsulotlarni importini kamayishiga erishiladi.

Bunga ko'ra, 2019-2025 yillarda mahalliy xom ashyo geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, qazib olish va qayta ishlash asosida qurilish industriyasining xom ashyo bazasini kengaytirish prognoz ko'rsatkichlari belgilandi;

- 2020-2025 yillarda geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, mahalliy xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash asosida qurilish industriyasining xom ashyo bazasini kengaytirish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlandi;

- noruda xom ashyolarning ekspress baholash tizimini tatbiq etish, innovatsion texnologiyalar asosida yangi turdagi qurilish materiallarini yaratish, mavjud xom ashyo zaxiralaridan oqilona va samarali foydalanishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish belgilandi;

- qurilish materiallari sanoati korxonalarini hududlarda joylashtirilishida va ularga noruda foydali qazilma boyliklarini o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziya berilish belgilandi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-son qaroriga 1-ilova



2025 yilda 193,8 million dollarlik 19 ta yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, ularda mahalliy kontent ulushi 32 foiz yoki 62,8 million dollarni tashkil etadi. Xususan, 48,4 million dollar qurilish materiallari va 13,8 million dollar qurilish xizmatlari mahalliy manbalar hisobiga to'g'ri keladi.

Umumiy 428,4 million dollarlik mahsulotlar eksport qilindi. Jumladan, Rossiyaga 107 million dollar, Qozog'istonga 94,7 million dollar, Qirg'izistonga 64,4 million dollar, Tojikistonga 53,7 million dollar, Ozarbayjonga 9,7 million dollar va Turkmanistonga 9,3 million dollarlik eksport amalga oshirildi.

Qurilish materiallari sanoatining rivojlanishida umumiy qurilish tarmog'ida olib borilayotgan islohotlar va tarmog' korxonalarining tashkiliy shakllari va joylashuviga monand holda rivojlanadi. Qurilishning tashkiliy shakllarini to'g'ri tanlab olinishi ahamiyati iqtisodiyotda mazkur sohaning egallagan o'rnidan, soha bajarishi joiz bo'lgan vazifalardan kelib chiqadi. Bir tomondan, qurilish sohasidagi xo'jalik yurituvchi subektlar tadbirkorlik tuzilmalari sifatida ish olib borishlari, ularning sa'y-harakatlari foyda olishga, raqobatbardoshlikka erishishga qaratilgan bo'lishi joiz. Shu jihatdan, qurilish sohasida tadbirkorlikning tashkiliy shakllari mulk egalari moliyaviy-iqtisodiy manfaatlari ishonchli himoya etilishini taminlashi, korxonaning moliyaviy barqarorligi, faoliyatning moliyaviy shaffof olib borilishi va tasirchan moliyaviy nazorat uchun imkon berishi zarur. Ikkinchi tomondan esa, qurilish tashkilotlari (korxonalari) faoliyati natijalari istemolchilar uchun juda muhim ahamiyatga ega va istemolchilar ishlab chiqarish faoliyatining uzoq yillik moddiy bazasini tashkil etgani uchun xizmatlar sifati bo'yicha mas'uliyat ham uzoq yillik bo'lishi lozim.

Shuningdek, sohani takomillashtirish bo'yicha bir qancha takliflarni keltirib o'tishimiz mumkin:

qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchilarni yetarli xom-ashyo materiallari bilan ta'minlash, xom ashyoga yaqin xududlarda qurilish matertallari ishlab chiqarish "XAB"larini tashkil etish;

yangi qurilish materiallari turlarini yaratish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish;

esport o'rnini bosuvchi qurilish maxsulotlari uchun soliq imtiyozlari joriy etish;

xom ashyolarni qayta ishlash bo'yicha investitsiyalarni jalb etish va loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov E. X., Isakov M. Yu. Kapital qurilish iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma., - T.: TDIU, 2004y.

2. Mamajanov, R. Ekologik samaradorlik va qurilish materiallarini ishlab chiqarishdagi eng yaxshi tajribalar. Toshkent: Qurilish tadqiqotlari markazi. 2022 yil
3. Ekologik toza qurilish materiallari ishlab chiqarishning strategiyasi. 45(3), 98-104. 2021 yil.
4. U.Uzoqova, "So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi" 7-jild 2-son respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.02.2024 y. 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, Adolat, 2020 yil 25 yanvar. – № 5.
7. <https://uzsm.uz/uz>.
8. <https://uza.uz>.



WOC
WORLD
ONLINE
CONFERENCES

